

“OILA TILI”NING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Saidxonov Ma'murjon Muhammedovich

filologiya fanlari doktori

Andijon DU o'zbek tilshunosligi kafedrasasi dotsenti

Email saidxonov54@mail.ru

Аннотация. Maqolada tilga antropotsentrik yondashuv va “oila tili” lingvomadaniy yondashuvning natijasi ekani qayd etilgan. O'zbek tilshunosligida “oila tili” tilning yashash shakli sifatida tadqiq etilishi xususida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Antropotsentrik, lingvomadaniy, oila tili, kommunikant, lisoiy shaxs.

Аннотация. В статье отмечается, что антропоцентрический подход к языку и «семейный язык» являются результатом лингвокультурологического подхода. Представлены идеи по изучению «семейного языка» как формы языковой жизни в узбекском языкознании.

Ключевые слова. Антропоцентрический, лингвокультурный, семейный язык, коммуникативный, языковая личность.

Abstract. The article notes that the anthropocentric approach to language and the "family language" are the result of the linguacultural approach. The ideas on studying the "native language" as a form of linguistic life in Uzbek linguistics are presented.

Key words. Anthropocentric, linguacultural, family language, communicative, linguistic personality.

Til ijtimoiy hodisa bo'lib, u muayyan jamiyat a'zolarining aloqa vositasi sanaladi. Shunga ko'ra tilning paydo bo'lishi, rivoj topishi, takomillashuvi, shuningdek, tanazzulga uchrashi ham jamoaga bog'liq, jamoaning tildan foydalanishiga aloqador. Jamiyat a'zolarining til qonun-qoidalarini qanchalar bilishi, qaydarajada o'zlashtirganligi, mavjud til banki leksik birliklaridan foydalanishlari, o'z fikrini ta'sirli, ishonarli, shaffof holda adresatga yetkaza olishlari va mos ravishda axborotni qabul qilib, samarali muloqotni tashkil etishlari kommunikantlarning bilimi, dunyoqarashi, kasb-kori, e'tiqodi, jinsi, ijtimoiy mavqei, yoshi kabi bir qancha omillarga bog'liq sanaladi.

XX asrning ikkinchi yarmidan tilga antropolingvistik nuqtayi nazardan yondashuvga e'tibor kuchaydi, aloqa-aralashuv kommunikativ akt sifatida tadqiq etilmoqda. Tilning moddiylashuvi natijasida muloqotning shakllanishi, uni yuzaga chiqaruvchi adresant va adresatning faoliyati, kommunikantlarning aloqa-aralashuvni yuzaga chiqarishdagi imkoniyatlari o'rganilmoqdaki, buning natijasida “lisoniy shaxs” tushunchasi ustuvorlik kasb etmoqda.

N.Mahmudovning fikricha, “antropotsentrizm tilshunoslar tomonidan faqat til tadqiqigina nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antropotsentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir”. ... antropotsentrik paradigmada inson asosiy

o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi”[4, 6.]

Ma’lumki, har qanday insonning muloqotga kirishishi uchun asosiy fundament (omil) oila davrasida shakllanadi. Bolada so‘zlarni eshitish orqali tushunchalar hosil bo‘ladi, keyinchalik uning o‘zi ham so‘zni talaffuz qilishga harakat qiladi. Natijada avvaliga so‘zlar ma’nosini idrok qilgan bolakay Ona bilan muloqotga kirisha boshlaydi. Shunga ko‘ra ona tili bo‘yicha ilk saboqlar oilada shakllanadi va rivoj topadi.

Tilning sotsiolingvistik, lingvomadaniy tadqiqi tilning muayyan jamiyatning mahsuli sifatida o‘sha xalq turmush tarzi, madaniyati bilan aloqador ekanini e’tirof etgan holda o‘rganishni taqozo etadi. G.Alimjonova ta’rificha, “Til – cheksiz sa’y-harakatlarning uzoq yillik solnomasidir. Chunki til tufayli biz dunyoni anglaymiz. Bunda til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik tushuniladi: til madaniyat tarkibida yashaydi”. [1,9.]

Har bir tilning bir qancha yashash shakllari borligini e’tirof etgan holda, aytish mumkinki, insonning ilk muloqotga kirishish davridagi tilni ”Oila tili” desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining amaliy qo‘llanishi haqidagi darslik, o‘quv-qo‘llanmalarda adabiy til, milliy til, dialektal til, argo, jargon, kasbiy til, shahar (qishloq) tili, koyne va boshqa sun’iy tillar haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, bunda **ijtimoiylik** asosiy mezon sifatida olingan. Lekin bola tilining shakllanishida asosiy omil bo‘lgan “oila tili” tilning yashash shakli sifatida ko‘rsatilmagan va shuning uchun tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Eng e’tiborlisi, inson dunyoga kelgach, uning shaxs sifatida tarkib topishi oilada bo‘ladi, u borliqni oilasi prizmasida idrok etadi, izohlar, qaydlar, tushunchalar va til shu dargohda shakllanadi va takomillashadi. Oila a’zolarining aloqa-aralashuvi (muloqoti)da shu oilaga mos bo‘lgan lisoniy birliklar, ularning talaffuzi, gap qurilishi, ramziy ifodalar, imo-ishoralar, supersegment vositalar mavjud bo‘lib, ular “oila tili”ni tashkil qiladi.

Shaxsning lisoniy shakllanishi oila davrasida bo‘lar ekan, bola borliqni oilada his qilib, tushunchalarni oilada nutqiy moddiylashtirar ekan, ilk kommunikativ munosabatlar tilda tarkib topadi. Oila insonning erkin nutqiy aloqaga kirishishi, kommunikativ jihatdan individualligini namoyish eta olishi, doimiy va o‘zaro tushungan kommunikantlar bilan suhbat olib borishi bilan boshqa jamoalardan farqlanadi.

Olam yuzini ko‘rgan chaqaloq uchun ilk rasmiy murojaat, bir tomonlama bo‘lsa-da, birinchi kommunikativ akt ilohiy azon kalomlari va bir umr u bilan hamroh bo‘ladigan ismi yordamida amalga oshiriladi. Shundan so‘ng go‘daklik davrida uning quloqlari betakror va mayin sas – ona allasi bilan oziqlanadi: uning ohangi, har bir kalomi bolada milliy ruhni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, hali tili chiqmagan, olam bilan faqat ko‘zlari orqali gaplashadigan murg‘ak qalb ona tilimizning qudratini, sohir yangrashini, jozibayu malohatini, chuqur ma’no ifodalovchi so‘zlarini his qiladi va undan oziqlanadi.

E’tibor bersangiz, Onalar chaqaloq tug‘ilishi bilan u bilan gaplasha

boshlaydilar, ona tilimizning oddiygina soʻzlarini, jarangdor talaffuzini, soddagina gap qurilishini, gap ohangi-yu uning ifodalanishini obrazga kirgan holda – imo-ishoralar bilan: yuz va koʻz, lab va bosh harakatlari bilan, ovozinig turfa jilvalari va sifatiy maʼno nozikliklari bilan bolaga yetkazadi va undan tabassum, kulgi, bosh qimirlatish, oyoq, qoʻl tebratish, nigoh, koʻzlar ifodasi, shu bilan birga, turli ovozlari, qiyqiriqlar, baqiriqlar vositasida javob oladi. Demak, aloqa-aralashuv shakllanadi, kommunikativ akt yuzaga chiqadi. Muloqot qiluvchilar (kommunikantlar) soʻzlar va ishoralar bilan oʻzaro fikr almashadilar, muloqotlashadilar.

Shu oʻrinda aloqa-aralashuvning nutqiy va nonutqiy shaklda yuzaga chiqishi insoniyat paydo boʻlgandan buyon ishlatilib kelishini taʼkidlash joiz. Bugungi kunda paralingvistik (noverbal) vositalar sanalgan maʼno ifodalovchi imo-ishoralar, ovoznig maʼno ifodalovchi sifatiy oʻzgarishlari, gavda harakatlari orqali axborot uzatish aloqa-aralashuvda faol ishlatilmoqda. “Fikrni toʻldirib keluvchi, unga yondosh boʻlgan imo-ishora tilini muttasil ravishda oʻrganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molikdir”. **(5.103)** Shunga koʻra nutqiy faoliyat imo-ishoralar bilan almashishi, toʻldirib borilishi, kuzatilishi mumkin (tasdiq maʼnosi “bosh qimirlatish” bilan, inkor “bosh tebratish” orqali, bexabarlik “yelka qisish” bilan va h.k.) va imo-ishora tili asosan oila davrasida shakllanadi.

Oiladagi ona tilimizning ilk muallimining bilim darajasi, dunyoqarashi, soʻz zaxirasining boyligi, uning emotsional-ruhiy taʼsirchanligi, gapirish yoʻsinlari, mimik-ishoraviy holatlari oʻquvchiga - farzandga singadi. Oilaning boshqa aʼzolari (ota, akalar, opalar va b.) taʼsirida bolaning tili shakllana boshlaydi va bu davr tilini - inson tili uchun poydevor boʻlgan tilni - **oila tili** desak toʻgʻri boʻladi. Bu holatni tilshunos N.S.Salomatina “shaxsning personallasuvi” deb izohlab oʻtadi. **(6. 103)**

Axir bola idrok etishi, tafakkur qilishi, fikrlashi, tashqi axborotni qabul qilishi, uni qayta ishlashi, mantiqiy fikrlashi, mos ravishda aks taʼsir koʻrsatishi kerak, yuzdagi xarakterizatorlar (mimika, poza, ishora va b.), diksiya, sukut va boshqalar oilada shakllanib soʻng ijtimoiyatda namoyon boʻladi. “Har qanday tarbiyaning, ayniqsa, til, maʼnaviy komillik, milliy oʻzlik tarbiyasining bosh va betakror oʻchogʻi bolani doimiy oʻrab turgan ijtimoiy muhit, xususan, oiladir”. **(3.9.)**

Sotsiolingvistik, psixolingvistik, kulturolingvistik, paralingvistik yondashuv “oila tili”ning oʻziga xos jihatlarini yaqqolroq namoyon etadi. Bola nutqining oilada shakllanib, koʻcha muhitida, bogʻchada, qarindoshlar, qoʻshnilar bilan muloqotda reallashuvi, axborot uzatishda yoki maʼlum axborotni qabul qilishda undagi mimik-ishoraviy holat, muloqotda noverbal vositalardan foydalanishi, ruhiyat va hissiyotning nutqiy kommunikatsiyaga taʼsiri kabi omillar kommunikativ akti shakllantiradi va bularning umumlashmasi kommunikativ maydonni hosil qiladi.

Birgina muloqot jarayonida imo va ishoralardan foydalanish jarayoniga toʻxtaladigan boʻlsak, aloqa-aralashuv jarayonida paralingvistik vositalardan foydalanish oilaviy tilning mahsuli sanalib, bola oiladagi muloqot jarayonida inkor va tasdiqni bosh harakatlari orqali ifodalashni oʻrganadi va kommunikativ akt doirasida oʻzlashtiradi. A.N.Baykulova yozishicha, oila nutqi muayyan xonadonda uzoq vaqt birga yashab kelayotgan, qon-qarindoshlik rishtalari bilan bogʻlangan insonlarning “tili” sanaladi. **(2.137.)** Boshqa jihatdan olib qaralganda, oila aʼzolari

boshqalar bilan kommunikativ munosabatda bo'lar ekan, adabiy tilga nisbatan farqliklar, umumiyliklar namoyon bo'ladi. Fonetik, leksik, gramatik jihatlar o'rganilganda, "oila tili"ning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi.

"Oila tili"ning o'ziga xosligi, eng avvalo, kommunikantlarning uzoq vaqt o'zgarishida namoyon bo'ladi va buning natijasida fonetik, leksik, grammatik jihatlar mukammallashadi va muqimlashadi. Toki kattalardan kichiklarga o'zlasha boradi. Shuningdek, o'zlarigagina xos bo'lgan tushunchalar, imo va ishoralar, leksik birliklar shakllana boradi.

"Oila tili" sohiblarining o'z "oila lug'ati" bo'ladiki, ular og'zaki nutqda ishlatilib, oilaning shaxsiy lug'atini tashkil etadi. Bu kabi lug'atlar oila a'zolarining individual lug'atlaridan kelib chiqadi va oila davrasida ommalashib, faol ishlatiluvchi so'zlar sirasiga kiradi.

Mashhur tilshunos D.N.Shmelev: "Insonda leksik birliklarning zaxirasi, nutqning ohangdorligi, morfologik variantlarni qo'llash – shu va shu kabi insondagi individual nutqiy jihatlar oilaviy an'anaviy, nutqiy o'ziga xosliklar natijasi sanalishini ta'kidlab, u bolalikning turli davrlarida oilada nutqiy fragmentlarni o'zlashtirib boradi", - deb aytadi. (7.100)

Tilshunoslar uchun muayyan oila tilini o'rganish nihoyatda qiyin: so'rovnomalar o'tkazish, savol-javoblar tashkil etish, muloqot jarayonlarida ishtirok etish.... sun'iylikni keltirib chiqaradi va ko'zlangan natijani bermaydi, ya'ni oila tili - bu oilaning siri sanaladi. Masalan: har bir oilada farzandingizning o'ndan ortiq ismi bo'ladi: erkab, qisqartirib, almashtirib, o'xshatib, biror voqea sharafiga va b. Barcha nomlar o'z motivatsiyasiga ega bo'lib, bu o'sha oila "tarixi" orqali aniqlanadi. Oilada **Gulasal** ismli farzand **Guli, Gul, Gulya, Gulim, Atirgul, Atirxon, Asal, Qaqqa, Novvot, Shirin** kabi nomlar bilan almashadi. Shuningdek, oila doirasidagi kechinmalar asosida turli nomlar (laqablar) qo'yiladi: **achom** (hamma bilan achomlashib ko'rishgani uchun), **Yulduzxon** (yoshligida Yulduz Usmonova ashulalarini aytgani uchun), **professor** (ko'p kitob o'qigani uchun), **kitob** (qonun doirasida ish ko'rganligi uchun), **boy, boybola** (yaxshi niyat bilan), **Qoravoy, Mallavoy** (bolaning rangiga ko'ra) va b.

Oila tili leksikoni eng boy sanalib, uy anjomlari, kiyim-kechaklar, uyning xonalari, narsalar, jarayonlar, harakatlar, holatlar oila lug'atini shakllantiradiki, natijada o'sha narsalar yangi nomlariga ega bo'ladi. Bular oila muloqoti doirasida tushunarli bo'lib, an'anaviy atamalardan farq qiladi.

Oila jamiyatning kichik bo'g'ini ekan va har qanday bola keyinchalik jamiyatning faol a'zosiga aylanar ekan, uning katta nutqiy qozonda qaynashida oila tili sabog'i katta ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv tadqiqotchilar e'tiborini til sistemasini uni tashkil etuvchisi bo'lmish so'zlovchi shaxs bilan uyg'unlashgan holda o'rganishni taqozo etadiki, bu bilan til real kommunikatsiya sharoitida tadqiq etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимжанова Г.М. Сопоставительная лингвокультурология: сущность, принципы, единицы, автореф. дисс. к. филол. н. – Казахстан, 2010. – С. 24.

2. Байкулова.А.Н. Культура семейного общения как залог культуры / Проблемы речевой коммуникации. – Саратов: ИЦ “Наука”, 2014. – 216.
3. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиги. Т., 2012. – 150.
4. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 5-16.
5. Пражский лингвистический кружок. М.: Прогресс, 1967. – 558.
6. Саломатина М.С. Коммуникативная личность филолога. АКД. Воронеж, 2005.
7. Язык и личность. (Отв. редактор Шмелев Д.Н.) М.: Наука, 1989. – 211.